



AIFU



ANTROPONIMLARDA ETNIK BELGILARNING AKS ETISHI

Sardor Sanjarovich Islomov

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Termiz, O'zbekiston

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tilida mavjud etnoantropnimlar tahlilga tortilgan. Antropnimlarning o'ziga xos xususiyatlari ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'rganilib, etnik jihatlarning nomlarda aks etish masalasi yoritilgan. Etnoantropnimlarning tuzulishi, semantik xususiyatlar misollar asosida tahlil qilinib, etimologik jihatlari ham aniqlangan.

120

Kalit so'zlar: etnonim, etnik belgi, etnoantropnim, laqab, tahallus, o'zbek tarixiy antropnimikasi, konsept.

Nomshunoslik ilmining yuzaga kelishi insoniyat tomonidan atab qo'yilgan jamiyki nomlarni o'rganish, tahlil qilish imkoniyatini berdi. Mazkur sohaning ichki qonuniyatlari, ma'lumotlarni o'rganish ko'lami dunyo tilshunosligida ko'plab olim va tadqiqotchilarning izlanishlari samarasi o'laroq aniq tartibga keltirilgan. Taniqli tilshunos olim V.N.Nikonov ta'kidlaganidek: "Bir-biridan ajralmas, amaliy va nazariy vazifalarining mavjudligi bilan antropnimika baxtlidir". Shuning uchun ham antropnimlarga qiziqish, uni o'rganish qadimiy tarixga ega. Yuz yillar davomida unga bag'ishlab minglab asarlar yozildi. Natijada kishi ismlarini o'rganuvchi tilshunoslikning alohida bir sohasi antropnimiya paydo bo'ldi. Bu ilm xuddi toponimika, etnonimika, zoonimika, kosmonimika singari onomastikaning tarkibiy bir qismini tashkil qiladi. Antropnimikaning yuqoridagi onomastik sathlardan farqi shuki, kishi ismlari qolgan onimlardan nom o'zlshtirish bo'yicha eng faoli hisoblanadi. Xususan, Qo'chqor, Arslon, Qumri kabi antropnimlar zoonimlardan, Zuxro, Yulduz kabilar kosmonimlardan, Qo'ng'iro't, Arab kabilar etnonimlardan antropnimga ko'chgan.

E.Begmatov o'zbek tilshunosligida antropnimikaning o'rganilishi borasida fikr yuritarkan, mazkur sohaning nazariy tomonlarini o'rganishda bir qancha muammolar mavjudligini qayd etgan edi. Olim o'zining "O'zbek tili antropnimikasi" nomli fundamental asarida quyidagi jihatlarni keltirib o'tadi: antropnimlar semantikasi va motivatsiyasi, antropnimlarni tasnif qilishning ilmiy motivlari, antropnimlarni qardosh va qardosh bo'lmagan tillar bilan qiyosiy o'rganish, antropnimiya fondiga ijtimoiy-lisoniy, milliy-madaniy, falsafiy-etnik jihatdan yondashish masalalari, tarixiy yozma obidalar tilidagi antropnimlarni o'rganish kabi bir qator muammolar o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

Atoqli otlarni o'rganish uzoq tarixga ega bo'lib, uning davriy taraqqiyoti davomida tadqiqotchilar ismlar ontologiyasi hamda ularning vazifalanish masalalariga e'tibor qaratganlar. Ilmiy bilimlarning turli sathlari vakillarining ismga bo'lgan qiziqishi alohida shaxs ongida va jamiyat hayotining turli bosqichlarida ismlarga katta hurmat bilan yondashilishiga sabab bo'lgan. S.G.Vorkachevning ta'kidlashicha, tilshunoslikning bugungi kundagi taraqqiyoti yoki antropotsentrik paradigma insonga "barcha narsalarning o'lchovini" berdi va uning dunyoqarashini ma'lum markazga yo'naltirdi. Albatta, bu markaz insonning madaniyati, tafakkur tarzi va etnik xoslanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu jihat har bir atoqli otning yuzaga kelishida insonning etnik va madaniy konseptosferasida mavjud ko'nikmalar hamda bilimlarning namoyon bo'lishi bilan o'z isbotini topadi.

Dastlab faqatgina belgi ifodalagan so'z o'ziga boshqa bir mazmunni yuklagan holda nom hosil qiladi. Bunda ma'lum bir belgini qay holatda tushunish, ayni zamonda, unga qanday munosabatda bo'lish muhimdir. Insonning bunday qabul qilish mexanizmi, shubhasiz, u yashayotgan muhit, ajdodlarining kimligi, qaysi madaniyat vakili ekanligi, jamiyatdagi maqomi, ruhiyati va tasavvur olami bilan belgilanadi. Shunday ekan, antropotsentrik paradigma tarkibiga kiruvchi bir qancha sohalar: etnolingvistika, areal lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik kabilar nom yaratish jarayonini o'z tadqiq doirasida o'rganadi, baholaydi. Xususan, ismlarning etnolingvistik va lingvomadaniy jihatlari etnomadaniy tasavvurlar zahirida vujudga kelgan ma'noni izohlaydi. Kishilik jamiyatining vujudga kelishi va rivojlanishida etnik o'ziga xoslik: milliy kognitiv, milliy diskurs, milliy stereotip, milliy realiya va milliy ramz kabi tushunchalar majmuasi bevosita etnik madaniyat – etnomadaniyatni belgilaydi, ifodalaydi. Bu kabi tushunchalar, abatta, antroponimlarda o'z aksini topadi. Shunga ko'ra, nomshunoslikda etnik onomastika ham farqlanib, millat nomlarining kelib chiqishini, etnonimlarning evolyutsiyasini, toponimlar, antroponimlar, zoonimlarning yaratilishida etnik belgilarning o'rni, etnonimlarning til nomlari (lingvonimlar) bilan o'zaro bog'liqligini o'rganadi.

121

Umuman olganda, nom shunchaki so'z emas, ko'pqirrali tushuncha – konsept hamdir. Fikrlarimizga asos sifatida E.Begmatovning antroponimiya, xususan, tarixiy antroponimiya haqidagi quyidagi xulosalarini keltirmoqchimiz: "O'zbek tarixiy antroponimiya deyarli tadqiq qilinganicha yo'q. Tarixiy yozma obidalar tilidagi matnlarda saqlanib qolgan antroponim materiallarini sinchiklab to'plash va o'rganish, bunday tadqiq antroponomik materialga nafaqat lisoniy jihatdan, balki etnolingvistik, etnomadaniy, ruhshunoslik, sotsiolingvistik, estetik, tarixiy-diniy nuqtayi nazardan ham yondashishni talab qiladi.

Xalqimiz orasida oilada yangi tug'ilgan farzand uchun ism tanlash bilan bog'liq turli an'analar mavjud. Shunday odatlardan biri oilaning yangi a'zosi uchun o'tgan ajdodlar nomlari orasidan ism tanlashdir. Ushbu an'ana juda qadimiy odatlardan ekanligi ma'lum. XVI asr o'zbeklari hayotidan hikoya qiluvchi Zahiriddin Muhammad Bobur qizi Gulbadanbegimning "Humoyunnoma" asarida ism qo'yish an'anasi bilan bog'liq voqea haqida quyidagicha hikoya qilinadi: "Hazrat Bobur Badaxshonga ketgan vaqtlarida Shohi Chuchukbegim qiz tug'dilar. Shu kecha hazrat tush ko'ribdilar. Tushida Faxriniso momom bilan Davlat Baxt ikkalalari eshikdan kirib, bir narsa olib kelib mening oldimga qo'yibdilar. Hazrat bu tushning ta'biri nima bo'lar ekan deb ko'p o'yladilar. So'ng qizning tug'ilganligi to'g'risida xabar eshitgach, ularning har ikkalalari ismlaridan, ya'ni bittalaridan "baxt", bittalaridan "niso" so'zini olib unga Baxtinisobegim deb ism qo'yidilar". Ko'rinadiki, ism

tanlash milliy tafakkur va madaniy dunyoqarash bilan birga ism qo'yuvchining bu boradagi savodxonligi ham qo'shilgan holda yuzaga keladigan jarayondir.

O'zbek tilida mavjud antroponimlar (bu yerda kelib chiqishi boshqa tillarga oid bo'lsada, tilimizga moslashib, faol bo'lgan ismlar ham nazarda tutilmoqda) tarkiban ko'p turli bo'lib, gular, o'simliklar, hayvonlar, osmon jismlari, mashhur shahar yoki boshqa joy nomlari, sonlar, kabi ko'plab nomlarga asoslanadi. Xuddi shuningdek, etnik belgilar yoki etnik nomlar – etnonimlar ham antroponimlar hosil qilishda ishtirok etadi. Etnik belgilar asosida ism qo'yish ajdodlarga hurmat, qaysi urug' yoki xalqqa mansublikni ko'rsatish kabi jihatlarga asoslanadi. Tadqiqotchi S.Kenjayeveva o'z tadqiqot ishida etnonimlarga nisbat berilgan antroponimlar haqida ham fikrlar yuritib, quyidagilarni ta'kidlaydi: Ba'zi hollarda bolaga ota-onasi mansub bo'lgan urug', qabila, ajdodlar nomini nisbatlovchi ism berilgan. Bunda bolaning nazarda tutilgan etnik guruhga mansubligini, o'sha etnos farzandi ekanini, uning o'tmish ajdodlari shu urug' yoki qabilaga mansub bo'lishganini, chaqaloq ularning davomchisiligini ta'kidlash ko'zda tutiladi. Etnonimlardan yasalgan ismlar etnoantroponimlar deb yuritiladi. Masalan, Abdal, Abdolnizoz, Arg'inboy, Barlos, Batosh, Bahrin, Baxmal, Boymoq, Boyqo'ng'ir, Bo'ronboy, Bo'ronali, Bo'rongul, Bo'ronoy, Bo'ronnizoz, Do'rmon, Jaloyir, Jag'alboy, Kaltatoy, Kenagas, Lochin, Mang'it, Mang'itoy, Marqa, Nayman, Saroy, Qipchoq, Qirg'iz, Qo'ng'iro't kabilar .

Tilshunos olim E.Begmatov bunday nomlarga, xususan, qabila va elat nomlari asosida xosil bo'lgan antroponimlarga: Argin, Barlos, Jag'alboy, Kaltatoy, Kenagasxon, Laqaygul, Mang'itoy, Mang'itqiz, Xalajboy, Qangliboy, Qipchoqqul, Qirg'iz, Qirg'izboy, Qozoqboy, Qutchi // Quchchi, Qo'ng'iro't kabi kishi ismlarini kiritadi . Bularga qo'shimcha sifatida O'zbek, Arab, Jaloyir, Marqa, Oyli kabi nomlarni ham keltirishimiz mumkin. Bu antroponimlar bugungi kunda nomlanishda faol tanlanmayotgan bo'lishi mumkin, biroq til tizimida mavjud bo'lgan va hozirda ham qo'llanilmoqda.

Etnik tarkibli nomlar tahlilga nazar soladigan bo'lsak, ismga asos qilib olingan etnonimlarning ayrimlari boshqa oddiy so'z yoki birikmalar bilan ma'nodosh bo'lishi mumkin. Misol uchun, Qo'ng'iro't ismining asosi bu qo'ng'ir rangli ot emas, balki, qo'ng'iro't etnonimi – o'zbeklarning keng tarqalgan va qadimiy urug'laridan biriga bog'liq. Yana bir misol, Oylar, Oyli ismi bir nechta oy – osmon jismi, yoki oyga ega ma'nosida emas qo'ng'iro't urug'ining bosh tarmoqlaridan biri oyinli etnonimiga bog'langan. Izlanishlarimiz jarayonida Surxondaryo vohasida aynan qo'ng'iro't urug'ining oyinni//oyinli tarmog'i vakillari bo'lgan bir nechta momolarning ismi Oylar, Oyli ekanligi va ular urug'iga ishora qilib qo'yilganining guvohi bo'ldik. Bizningcha, Oyli antroponimi oyinli etnonimining fonetik o'zgarishga uchragan shakli bo'lishi ham mumkin. Mazkur etnonim bo'yicha ilmiy manbalarda quyidagicha ma'lumotlar keltiriladi: Tamg'asining shakliga ko'ra nomlangan yana bir urug' nomi oyinni bo'lib, oyinli tarzida ham yuritiladi. Oyinni etnonimining asosi "oy" bo'lib, "oyli" degan ma'noni ifodalagan. Ushbu fikrimizni tarixiy manbalar ham asoslaydi. Xususan, B.X.Karmishevaning ta'kidlashicha, "oyinni", "oyinli", "oyin", "ayn" yoki "oyli" nomlarining negizida "oy" so'zi yotadi. Shu urug'ning tamg'asi yarim oyga o'xshatilib, taqa sifatida tasvirlangan. Yuqorida qayd etilgan beshta so'z ham "oyga ega bo'lmoq", oytamg'ali esa "oy shaklidagi tamg'aga ega" ma'nosini anglatadi . Ko'rinib turibdiki, Oylar, Oyli ismlari etnonimga asoslangan antroponimlardir.

O'zbek, Arab, Qozoqboy kabi antroponimlar ham etnonimga asoslanganligini yuqorida aytib o'tgan edik. Bu nomlar orasida O'zbek antroponiminig etimologiyasi biroz bahsli. Xususan, ayrimlar mazkur nomni antroponimdan etnonimga o'tgan, yani O'zbekxon nomi bilan bog'liq deb hisoblaydilar. Ammo boshqa manbalarda bu etnonimning hosil bo'lishi O'zbekxonga aloqador emasligi ta'kidlanadi. Bizningcha ham mazkur nom antroponimdan etnonimga emas, etnonimdan antroponimga ko'chgan.

Etnik belgi asosida vujudga kelgan antroponimlar sirasiga Eshon, To'ra, Xo'ja, Said kabi nomlarni ham kiritishimiz mumkin. Mazkur tushunchalar ma'lum bir xalq nomini ifodalama-da, kelib chiqishi jihatidan shu etnik birlashmaga kiruvchi kishilarning shajaraviy tarkibiga mansublikni ifodalaydi. Xalqimiz orasida keng qo'llaniladigan eshonlardan, xo'janing qizi, to'ra avlodi kabi birikmalarda ham bu nomlar ma'lum bir etnik jamoani nomlashini ko'rishimiz mumkin.

Janubiy Surxondaryo qipchoq lahjasi antroponimlarini o'rgangan M.Qobilov etnonimlar antroponimlarni hosil qilishda ishtirok etishini ta'kidlaydi va etnonimlardan hosil bo'lgan eponimik antroponimlarga Qipchoq, Qo'ng'iro't, Norin, Olchin, O'g'lon, O'tagan, Qoraxon, Turkman, Qozoq, Qozoqboy, O'zbek, Qirg'izboy, Qirg'iz kabi misollarni keltirib o'tadi. Ushbu qipchoq shevasiga oid ismlar faqat o'zbek urug'i vakillarigagina tegishli bo'lmasdan, qadimiy shakllanish jarayoni bilan bog'laganda umumturkiydir deya o'z fikriga yakun yasaydi.

Umuman olganda, etnoantroponimlar, bir tomondan, o'tmish ajdodlarga hurmatni, bola o'sha ajdodlar davomchisi ekanligini anglatadi, ikkinchidan, tug'ilgan bola shu etnosga mansublikni ifodalaydi. Bunday ismlarda bolani o'tmish

ajdodlar, ota-bobolar ruhi qo'llaydi, asraydi degan ishonch ham mavjud. Shuningdek, urug' yoki boshqa etnik jamoaning nomini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish maqsadi ham mavjud bo'ladi. Etnik belgisi bunday antroponimlarni o'rganish xalqimizga xos etnomilliy, etnomadaniy tasavvurlarni o'rganish va bu tafakkur mahsulining qaysi so'z vositasida yuzaga chiqishini aniqlash imkonini beradi. Bu esa tilshunoslikda so'z anglatadigan yangi bir tushuncha – semaning konseptlashuv jarayonini aniqlaydi va baholaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бегматов Э.А. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 260.
2. Ибрахимова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида антропонимик бирликларнинг лингвистик хусусиятлари. Филол.фан.бўйича фалс.док.дисс. – Термиз, 2022. – В. 16.
3. Kurbanazarova N. O'zbek tilida etnonimlar etimologiyasining lingvomadaniy asoslari (qo'ng'iro't urug'i misolida). Filol.fan.dok.diss. – Qarshi, 2026. – В. 19.
4. Ҳамроева М. Тоҳир Маликнинг бадиий асарларида антропонимлар. Filol.fan. bo'yicha fals.dok.diss. – Buxoro, 2022. – В. 22.
5. Djurayeva Y. O'zbek tilida xotin-qizlar ismlarining lingvistik xususiyatlari. Filol.fan. bo'yicha fals.dok.diss. – Qarshi, 2025. – В. 17.

ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ТАРЖИМАШУНОСИЛИКНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

6. Кенжаева С. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион-мотивацион асослари ва тавсифи. Филол.фан. бўйича фалс.док.дисс. – Қарши, 2019. – В. 17.
7. Qobilov M. Janubiy Surxondaryo qipchoq lahjasi antroponimikasi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Termiz. 2026. – В. 91.